

O'ZBEKISTONDAGI SOLIQ IMTIYOZLARI TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Xolmirzayev Doniyorjon Elyorjon o'g'li
Mamadaliyev Qodirjon Qobiljonovich

Ilmiy rahbar: Toshkent Moliya Instituti Andijon Fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi soliq tizimi haqida va soliq tizimidagi imtiyozlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek ushbu maqolada tadbirkorlar hamda kichik biznes subyektlariga mamlakatimiz soliq tizimida taqdim etilayotgan imtiyozlar haqida mulohazalar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *QQS, tadbirkorchilik, kichik biznes, sotuv, eksport, keshbek, davlat moliya-soliq tizimi*

Iqtisodiyotni raqamlashtirish va erkinlashtirishning hozirgi bosqichida O'zbekiston Respublikasida soliq tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar va unga kiritilgan soliq turlaridan soliq imtiyozlari hozirgi kunda tadbirkorlar uchun qulaylik yaratishga va biznes ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Butun yer yuzida mamlakatlar o'zining iqtisodiy salohiyatini oshirishga va oziq-ovqat havfsizligini ta'minlash yo'llarini qidirmoqda. Chunki o'zgarib borayotgan siyosiy vaziyat va iqtisodiy havfsizlik shuni talab etadi. Bu esa mamlakatdagi biznes subyektlariga soliq tizimida eskicha yondashuvdan voz kechib ularning tadbirkorligi uchun keng sharoit yaratib berishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari asosida 2022-yil 1-yanvardan boshlab:

- kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi;
- tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun moliyaviy sanksiyalar bekor qilinadi.²¹

Bu bilan tadbirkorlar o'z korxonalarini soliqqa oid hujjatlaridagi kamchilik va yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar hamda soliqqa doir hisobotlarni kechiktirganliklari uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmasligi, tadbirkorlar uchun o'z bizneslarini kutilishi mumkin bo'lgan moliyaviy sanksiyalar haqida o'ylamasdan o'z biznesni yanada rivojlantirish uchun va boshqa hatolarni takrorlamasdan odim qadam bosishga undaydi.

Shu jumladan aholiga soliq imtiyozlaridan biri sifatida soliq tizimidagi "Keshbek"lar ya'ni tadbirkorlar to'lagan soliqlardan o'ziga ma'lum bir foiz miqdorida soliq to'lagan shaxsga qaytarilib berilishini kabi yana bir qator misollar keltirish mumkin hamda nogironligi bor shaxslarga va urush qahramonlarini ma'lum soliqdan

²¹<https://lex.uz/docs/-5618892>

ozod qilinishi bu O'zbekiston Respublikasi hududida to'g'ri soliq tizimi joriy etilganidan dalolat.

Albatta yaratilayotgan imtiyozlar qatoriga 15 mart 2023 yildagi ma'lumotlarga ko'ra hususiy bog'cha va maktablar to'lovi uchun ota-onalar 17 mlrd so'mdan ortiq soliq imtiyozlaridan foydalangani ham buning yaqqol misoli.

Mavzuga doir ma'lumotlar va tahlillar.

O'zbekiston Respublikasining davlat soliq organi faoliyati 1990- yilning 17-dekabirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshida Davlat moliya-soliq Bosh boshqarmasini tashkil qilish to'g'risida"gi 385-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Pirizidenting "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq Bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi 1994-yil 18-yavardagi Farmoniga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida 21 bo'lim, 72 bob, 483 moddadan iborat bo'lib, Soliq qo'mitasidagi ishlovchi shahslar shu qonunlarga amal qilgan holda ish olib borishadi.

Soliq bo'yicha bir qator imtiyozlar qonunchilik asosida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan bo'lib ular:

- ob'ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush fahriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi stavkasini pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish) va uni hizmat qiladi.

Soliq imtiyozlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida ko'rsatilgandek: "Soliq to'lovcholarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyatni soliq imtiyozlari deb ataladi".²²

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksidagi Qonunda 2023-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari o'zgartirish va qo'shomchalar kiritilib, ularda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq stavkasining kamaytirilishni, ayrim turdagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'idan va ijtimoiy soliqdan imtiyozlar berilib, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq stavkalarining unifikatsiya qilinishi hamda mutlaq summada belgilangan soliq stavkalarining kutilayotgan inflatsiya darajasidan kelib chiqqan holda indeksatsiya qilinishi, shuningdek budjetga to'lanishi lozim

²² <https://lex.uz/ru/docs/-4674902?ONDATE=01.01.2022>

bo'lgan soliqlarning to'liq yig'ilishiga qaratilgan soliq ma'muriyatchiligiga oid choralar nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari yana bir qator imtiyozlar mavjud bo'lib, foydalanilmayotgan obyektlarga, shuningdek mazkur obyektlar bilan band bo'lgan yer uchastkalariga nisbatan mol-mulk solig'ining va yer solig'ining oshirilgan stavkalarini qo'llash tartibi bekor qilinmoqda.

Ushbu holatlarni tahlil qilgan holda kichik biznes hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi fuqorolarga qo'shimcha imtiyozlarni berish ularni yanada ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sifatli hamda chet el mamlakatalarga sotilishi rejalashtirilgan tovar va mahsulotlarini yanada ko'proq ishlab chiqarishlariga zamin yaratada, sababi ushbu berilayotgan qo'shimcha imtiyozlar (masalan: ozroq miqdorda soliq olish yoki QQS (qo'shimcha qiymat solig'ini vaqtincha undirilmalik) ularni umumiy moliyaviy mablag'alrini yanada ko'paytirib mahsulotlarning sonini ham sifatini ham ko'paytirishlariga zamin yaratadi.

Xulosa:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi soliq tizimining mohiyati yoritib berildi, shuningdek ushbu maqolda tadbirkorlik hamda kichik biznes bilan shug'ullanuvchi fuqorolarga qo'shimcha imtiyozlarni berish ijobiy natijaga olib kelishi haqida ham o'rganildi.

Har qanday davlat soliq to'lovchilarning miqdor jihatidan ko'payishidan manfaatdor. Chunki soliq to'lovchilar salmog'ining keskin ortishi mamlakatda soliq muhitining qulayligi bilan bevosita bo'liqdir. Bu esa soliq turlaridan imtiyozlar tizimining juda samarali yo'lga qo'yilganigi bilan izohlanadi.

Oltin tuhumi beradigan tovuqlar soni ko'p bo'lishi oltin tuhunlar salmogiga ta'sir etadi. Bu albatta o'hshatish sifatida keltirilgan ibora lekin haqiqatni o'zida ifodalaydi. Oltin tuhumi beradigan tovuq'i bor shaxs ular uchun sharoitni mukammal qilib berishga harakat qiladi hamda sonini oshirib borishga intiladi. Shuning uchun mamlakatdagi soliq tizimida imtiyozlar ko'lami mukammal bo'lishi kerak va soliq to'lovchilarni faoliyatini yanada kengaytirib borishga xizmat qilishi darkor.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq imtiyozlari masalasiga ilmiy yondashilsa mamlakatimizdagi tadbirkor hamda kichik biznes egalarning sifatli mahsulot va tovarlarining hajimi oshish ehtimoli kengayadi. Bu esa Respublikamizda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish katta xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. T. 2022 yil
- 2) A.S Jo'rayev, G'.A.Safarov, O.R. Meliyev Soliqlar va soliqqa tortish" "Nihol print" OK nashriyoti,2021.
- 3) <https://lex.uz/docs/-5618892>
- 4) <https://lex.uz/ru/docs/-4674902?ONDATE=01.01.2022>